GRADATSIYA MATNNI SHAKLLANTIRUVCHI MUHIM VOSITA SIFATIDA
(“Oshiqnoma” turkumi dostonlari misolida)

Doniyor Yuldashev Taxirovich,
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Guli Ro‘zimova Shuhratovna,
UrDU mustaqil tadqiqotchisi

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19839489

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “Oshiqnoma” turkumi dostonlarida qo‘llangan gradatsiya hodisasi lingvopoetik imkoniyatlari, badiiyati va ularning matn badiiy-estetik butunligini ta’minlashdagi o‘rnini aniqlash xususida so‘z boradi.*
Kalit so‘zlar: *Gradatsiya, darajalanish, tadrij, klimaks, antiklimaks, mantiqiy gradatsiya, emotsional gradatsiya.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются лингвопоэтические возможности феномена градации, используемого в эпосах серии “Ошикнома” его художественные качества и их роль в обеспечении художественно-эстетической целостности текста.*
Ключевые слова: *Градация, прогрессия, кульминация, антикульминация, логическая градация, эмоциональная градация.*

Annotation. *This article deals with the linguopoetic possibilities of the phenomenon of gradation used in the epics of the “Oshiqnoma” series, its artistic qualities and their role in ensuring the artistic and aesthetic integrity of the text.*
Keywords: *Gradation, gradation, progression, climax, anticlimax, logical gradation, emotional gradation.*

Kirish. Jahon va o‘zbek tilshunosligida gradatsiya hodisasi uslubiy figura va matnni shakllantiruvchi muhim vosita sifatida keng tadqiq etilgan. Jumladan, jahon tilshunosligida gradatsiya (lotincha *gradatio* – darajalanish) tushunchasi ham mantiqiy, ham stilistik nuqtayi nazardan o‘rganiladi. Jumladan, V.V.Vinogradov gradatsiyani poetik nutqning emotsionalligini oshiruvchi sintaktik figura sifatida tahlil qiladi. Olim gradatsiyaning obrazlar tizimidagi o‘rni va badiiy matn dinamikasini ta’minlashdagi ahamiyatini atroflicha yoritadi [2, 135-140]. I.R.Galperin esa gradatsiyani *climax* (ko‘tariluvchi) deb ataydi va gradatsiyani mantiqiy, emotsional va miqdoriy turlarga ajratadi. Muallifning fikricha, har bir keyingi bo‘g‘in oldingisidan ma’no yoki hissiy kuch jihatidan ustun bo‘lishi shart [1, 157-160].

O‘zbek filologiyasida gradatsiya *darajalanish* yoki mumtoz poetika ilmida *tadrij* terminlari bilan ham yuritiladi. N.Mahmudov va A.Nurmonov tadqiqotlarida gradatsiya hodisasi gapda ma’no qirralarining kuchayishi yoki susayishi asosida

o‘rganilgan. Mualliflar gradatsiyani nafaqat stilistik, balki semantik-sintaktik kategoriya sifatida baholaydilar [7, 205-208]. Y.Is’hoqov mumtoz adabiyotdagi *tadrij* (gradatsiya) san’atini tahlil qiladi va tadrijning ikki turini ko‘rsatadi: a) irodayi tadrij (ko‘tariluvchi ma’no); b) inzoli tadrij (pasayuvchi ma’no) [3, 124-126]. M.Yo‘ldoshev esa gradatsiyani badiiy matnning estetik ta’sirchanligini ta’minlovchi lingvopoetik vosita sifatida o‘rganadi. Olim matnda darajalanishning konseptual ahamiyatini va qahramon ruhiyatini ochishdagi vazifasini tahlil qiladi [5, 112-118]. Shuningdek, adabiyotlarda gradatsiya xususiyatlariga ko‘ra turlicha tasnif qilinishi: mohiyatiga ko‘ra: ko‘tariliuvchi gradatsiya (klimaks) va pasayuvchi gradatsiya (antiklimaks); ifoda usuliga ko‘ra: mantiqiy, emotsional va miqdoriy gradatsiya; ifoda materialiga ko‘ra: leksik gradatsiya va sintaktik gradatsiya bo‘lishini qayd qiladi [4, 71]. Yuqoridagilarga tayanib, aytish mumkinki, badiiy matnning ta’sirchanligini ta’minlovchi uslubiy vositalar orasida *gradatsiya* alohida o‘rin tutadi. Ushbu tasviriy vosita voqea-hodisalar yoki tushunchalarning ma’no va hissiyot jihatidan izchil ortib borishini ifodalaydi. “Oshiqnoma” turkumidagi dostonlar tili o‘zining darajalangan ekspressivligi bilan alohida ajralib turadi.

Metodologiya. Bizning ushbu maqolamiz materiallari sifatida “Osjiqnoma” dostonlaridagi gradatsion birliklar tanlangan bo‘lib, manbadagi ko‘tariluvchi, pasayuvchi, mantiqiy va emotsional gradatsiyalarning badiiy matndagi vazifalari va xususiyatlari tahlil qilingan. Bu jarayonda lingvistik tadqiqot metodlaridan tavsiflash, asosan, tasviriy metoddan foydalanilgan. Chunki “tasviriy metodning asosiy vazifasi shundaki, u muayyan sinxron aspektga tegishli lisoniy birliklarni, hodisalarni tasvirlash, tavsiflash jarayonida ularni tahlil qilib boradi, tildagi vazifasini, o‘rnini, qo‘llanishini, tuzilishini, o‘ziga xosliklarini aniqlaydi, umumlashtiradi, xulosalar chiqaradi [8, 257]”.

Muhokama va natija. Ilmiy manbalar asosida gradatsiyaning quyidagi turlarini tizimlashtirish mumkin: 1) ko‘tariluvchi gradatsiya – klimaks; 2) pasayuvchi gradatsiya – antiklimaks; 3) mantiqiy gradatsiya; 4) emotsional gradatsiya. Quyida ushbu turlarning har biriga alohida to‘xtalishga harakat qilamiz:

1. Ko‘tariluvchi gradatsiya. Doston qahramonlari o‘zlarini begona muhitda tanishtirganda yoki o‘z haq-huquqlarini himoya qilganda, ko‘pincha ijtimoiy-huquqiy maqomning uch bosqichli ko‘tariluvchi gradatsiyasidan foydalaniladi. Bu usul tinglovchida qahramonga nisbatan rahm-shafqatdan ehtiromga qadar bo‘lgan tuyg‘ular zanjirini uyg‘otadi. Masalan, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonida G‘arib o‘zini quyidagicha tanishtiradi: “Men avvalo *g‘aribman...*, ikkinchidan *oshiqman...*, uchinchidan *mehmonman*” (Oshiqnoma, 4-kitob, 11-16-b.) Ushbu jumlada ma’noviy yuklama quyidagicha ortadi: a) g‘ariblik – ijtimoiy himoyasizlik

(shafqat so‘rash); b) oshiqlik – ruhiy martaba (dardiga sheriklik); c) mehmonlik – muqaddas huquq (daxlsizlik va ehtirom talabi).

Ba’zan dostonlardagi jangovar sahnalar yoki safar tasvirlarida harakat va shiddatning darajalanishi kuzatiladi, ya’ni fe’llar ko‘tariluvchi gradatsiya asosida tiziladi. Bu kitobxon va tinglovchi ko‘z o‘ngida voqeaning dinamik rivojlanishini namoyon etadi. Masalan: “Avazning keltirilishi” dostonida harakatlar zanjiri shiddat bilan ortib boradi: “Ola dog‘din *oshirurman*, Oq siynamda *yoshirurman*, Bobong kelsa *topshirurman*” (Oshiqnoma, 4-kitob, 309-b.). Ushbu jumlada *oshirmoq* (to‘siqni yengish), *yashirmoq* (himoya qilish) va *topshirmoq* (maqsadga erishish) fe’llari syujetning kulminatsiya nuqtasiga qarab ko‘tarilib borishini ta’minlagan.

“Oshiqnoma” dostonlarida mahbubaning go‘zalligini tasvirlashda lisoniy birliklar shunchaki sanalmaydi, balki ularning estetik qiymati darajama-daraja kuchaytirib boriladi. Buni portret tasvirida sifatlar gradatsiyasi sifatida izohlash mumkin. Masalan, dostonda Hamroning tashqi va ichki go‘zalligi quyidagicha chiziladi: “Qoshlaring *kamondur*, ko‘zlaring *jallod*, So‘zlaring *asaldur*, lablaring *novvot*” (Oshiqnoma, 1-kitob, 42-b.). Ushbu o‘rinda dastlab tashqi qurol (*kamon*), so‘ng ta’sir kuchi (*jallod*), keyin esa ma’naviy lazzat (*asal*) va jismoniy shirinlik (*novvot*) orqali go‘zallik ta’rifi eng yuqori nuqtaga ko‘tariladi. M.Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek, bunday darajalanish badiiy matnning kognitiv-estetik quvvatini shakllantiradi [5, 114].

Dostonlarda ruhiy holat va dardning tadriji, jumladan, qahramonning ayriliq azobidagi holati ko‘pincha “kuchayish” tamoyili asosida beriladi. Masalan, “Yusuf va Ahmad” dostonida qahramonning nidosi: “Bir kunda *yig‘ladim*, bir hafta *bo‘zladim*, bir oyda *baqirdim*”. (Oshiqnoma, 3-kitob, 88-b.) Ushbu misolda vaqt birliklarining (*kun – hafta – oy*) va harakat fe’llarining (*yig‘lash – bo‘zlash – baqirish*) darajalanishi qahramon dardi chidab bo‘lmas darajaga yetganini lingvistik jihatdan isbotlaydi.

2. Pasayuvchi gradatsiya. Badiiy nutqda tushunchalar quvvatining izchil kamayib borishi, ulug‘vorlikdan oddiylikka yoki umiddan tushkunlikka qarab yo‘nalishi pasayuvchi gradatsiya deb ataladi. Mumtoz poetikada bu hodisa “*inzoli tadrij*” nomi bilan yuritilib, asosan, foniylik, yo‘qotish, ruhiy inqiroz va kutilmagan salbiy burilishlarni tasvirlashda qo‘llanadi. “Oshiqnoma” dostonlarida antiklimaks qahramonning fojiaviy holati va dunyoning o‘tkinchi tabiatini ochib beruvchi asosiy vosita sanaladi. Jumladan, dostonlarda moddiy va ijtimoiy yo‘qotish antiklimaksi – qahramonning to‘satdan tushkunlikka tushishi yoki bor-yo‘g‘idan ayrilishi ko‘pincha ulug‘vorlikdan nol darajaga tushish tartibida tasvirlanadi. Masalan, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonida G‘aribning safar chog‘ida hamma narsasidan ayrilishi

quyidagicha darajalanadi: “Kelur erdik, ko‘p *xazina*, *mol* birlan, G‘ofillikda kelib, bizni *sel oldi*”. (Oshiqnoma, 4-kitob, 115-b.) Ushbu jumlada tushunchalar zanjiri *xazina* (eng yuksak boylik) – *mol* (umumiy mulk) – *sel* (tabiiy ofat // yo‘qlik) ko‘rinishida pasayadi. Avvalgi ulug‘vorlik oxir oqibatda mutloq yo‘qotishga aylanadi.

Qahramonning ayriliq azobidagi ruhiy tushkunlik va umidning so‘nish holati ko‘pincha keng ko‘lamli murojaatdan shaxsiy fojiaga qarab pasayib boradi. Masalan, “Hurliqo va Hamro” dostonida Hamroning choh ichidagi nidosida antiklimaksni ko‘rish mumkin: “Ko‘kdan uchgan baland-baland *turnalar*... Maning bu *jonimdan* yo‘qdi umidim... Og‘amga *o‘ldi degaysan*”. (Oshiqnoma, 3-kitob, 493-b.) Ushbu gapdagi pasayuvchi darajalanish tartibi quyidagicha: a) “ko‘kdan uchgan turnalar” – keng va baland dunyo tasviri; b) “jonimdan umid yo‘q” – insoniy borliqning shubha ostiga olinishi; c) “o‘ldi degaysan” – hayotning so‘nggi nuqtasi, sukunat.

Dunyoning o‘tkinchi ekanligi haqidagi aforizmlarda antiklimaks falsafiy mazmun kasb etadi. Inson umri yillar va kunlar osha kichrayib borishi tasvirlanadi. Masalan, “Tohir va Zuhra” dostonidagi o‘gitlarda vaqt va foniylikning pasayuvchi gradatsiyasi yaqqol ko‘rinadi: “Kecha ketar, kunduz o‘tar, fursat *o‘tar*, *Bo‘ston* qurir, *gul* so‘lir, *xazon* bo‘lur”. (Oshiqnoma, 5-kitob, 12-b.) Bu hikmatda *bo‘ston* (butun bir bog‘) – *gul* (alohida go‘zallik) – *xazon* (chirigan barg) zanjiri orqali ma’naviy-moddiy qiymatning pasayib borishi ko‘rsatilgan. Bu antiklimaks kitobxonda hayotning o‘tkinchiligi haqidagi kognitiv xulosani shakllantiradi.

Ba’zan antiklimaks voqelikning tushunarli darajadan butkul mavhumlikka qarab pasayishi orqali ifodalanadi. Ayniqsa, dostonlardagi (xalq ertaklarida ham) “uch yo‘l” motivi xavf darajasining pasayuvchi tasviri, ya’ni tahlika antiklimaksining mumtoz misoli sanaladi: “Uch yo‘l bandiga: “*borsa kelar*”, “*borsa kelmas*”, “*borsa gumon*”ga duch kelishi...” (Oshiqnoma, 4-kitob, 215-b.) Ko‘rinadiki, ushbu holatda umid darajasi pasayib boradi: *aniq imkoniyat* (kelar) – *aniq xatar* (kelmas) – *mutloq mavhumlik* (gumon). I.R.Galperin ta’kidlaganidek, bunday antiklimaks psixologik bosimni oshirishga xizmat qiladi [1, 159].

“Oshiqnoma” dostonlarida pasayuvchi gradatsiya quyidagi vazifalarni bajaradi: a) falsafiy – dunyoning vaqtinchalik va foniylik tabiatini lisoniy isbotlash; b) psixologik – qahramonning fojeaviy holatini, uning ijtimoiy va ruhiy inqirozini kuchliroq ifodalash; c) estetik – matnda dinamikani ta’minlash va kutilmagan yakuniy xulosaga zamin tayyorlash.

3. Mantiqiy gradatsiya. Badiiy matn qurilishida voqea-hodisalarning vaqt, makon va sabab-oqibat munosabatlariga ko‘ra izchil tartiblanishi *mantiqiy gradatsiya* deyiladi. “Oshiqnoma” dostonlarida mantiqiy gradatsiya qahramonning harakatlari,

safar bosqichlari va hayotiy tajribasining ortib borishini ko‘rsatishda markaziy uslubiy figura vazifasini o‘taydi. Jumladan, doston qahramonining safar jarayoni, bir manzildan boshqasiga o‘tishi shunchaki xronologik emas, balki mantiqiy murakkablashib boruvchi makon va masofa mantiqiy gradatsiyasi asosiga quriladi. Masalan, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonida G‘aribning Vatanidan ayrilib, o‘zga ellarga borishi va u yerdagi holati mantiqiy bosqichlarda beriladi: “Vatandan *chiqdim*, cho‘llarni *oshdim*, shaharlarga *yetdim*, g‘ariblik bandiga *tushdim*”. (Oshiqnoma, 4-kitob, 42-b.) Bu yerda mantiqiy zanjir quyidagicha: *chiqish* (harakatning boshlanishi) – *oshish* (to‘siqlarni yengish) – *yetish* (manzilga yetib borish) – *tushish* (oqibat – yangi ijtimoiy holatga duch kelish).

Doston jumlalarida bir fikr ikkinchisini taqozo etishi va yakunda umumiy xulosaga kelinishi sabab-oqibat va mantiqiy gradatsiyani shakllantiradi. Masalan, quyidagi misol insonning ichki kechinmalarini mantiqiy tartibda ko‘rsatadi: “Ko‘ngil *talpindi*, ko‘z *ko‘rdi*, aql *shoshdi*, ishq *g‘olib bo‘ldi*” (Oshiqnoma, 1-kitob, 112-b.) Ushbu jumladagi mantiqiy bosqichlar tahlili quyidagicha: *dastlabki impuls* (talpinish) – *vizual aloqa* (ko‘rish) – *ruhiy sarosima* (shoshish) – *yakuniy natija* (ishqning g‘alaba qilishi). Y.Is’hoqov ta’riflaganidek, bu yerda “*irodayi tadrij*” orqali inson psixologiyasining mantiqiy zanjiri yaratilgan [3, 125].

Ba’zan “Oshiqnoma” turkum dostonlarida vaqt birliklarining mantiqiy darajalanishi kuzatiladi, ya’ni vaqtning o‘tishi bilan qahramon kutgan natijaning yaqinlashishi yoki uzoqlashishi mantiqiy birliklar orqali ifodalanadi. Masalan, “Tohir va Zuhra” dostonida vaqtning mantiqiy o‘tishi: “Bir *soat* o‘tdi – xabar yo‘q, bir *kun* o‘tdi – samar yo‘q, bir *yil* o‘tdi – asar yo‘q”. (Oshiqnoma, 5-kitob, 154-b.) Ushbu o‘rinda vaqt o‘lchovlarining ortib borishi (*soat – kun – yil*) qahramonning sabr darajasini va voqelikning mantiqiy og‘irligini ko‘rsatib beradi. N.Mahmudov ta’kidlaganidek, bunday gradatsiya matnda vaqt kategoriyasining kognitiv modelini yaratadi [6, 11].

4. Emotsional gradatsiya. Badiiy matnda qahramon ruhiyatidagi hayajon, dard, sog‘inch yoki g‘azab kabi ichki kechinmalarning lisoniy birliklar yordamida izchil ravishda kuchaytirib borilishi *emotsional gradatsiya* deb ataladi. Lingvopoetikada bu hodisa kitobxon yoki tinglovchining hissiyotiga bevosita ta’sir o‘tkazish, matndagi emotsional kuchlanishni kulminatsiya nuqtasiga olib chiqish uchun xizmat qiladi. “Oshiqnoma” turkumidagi dostonlar baxshichilik an’analari bilan sug‘orilgani sababli, ularda emotsional gradatsiya nutqning ta’sirchanligini ta’minlovchi eng yetakchi vositadir. Jumladan, dostonlardagi dard va iztirob darajalanishi emotsional gradatsiyaga dalildir.

Dostonlarda qahramonning ayriliq azobidagi holati shunchaki tushkunlik bilan emas, balki jismoniy va ruhiy qiynoqning bosqichma-bosqich ortib borishi orqali ifodalanadi. Masalan, “Hurliqo va Hamro” dostonida Hamroning choh ichidagi nidosida hissiy quvvatning darajalanishini ko‘rish mumkin: “Hasratingda ko‘zdan yoshim *sel bo‘ldi*, kuya-kuya tandi jonim *kul bo‘ldi*, qora ko‘zing o‘yilibdur, *ko‘r bo‘ldi*”. (Oshiqnoma, 3-kitob, 236-b.) Bu yerda emotsional zanjir quyidagicha rivojlanadi: a) sel bo‘lish (ko‘z yoshi – tashqi belgi); b) kul bo‘lish (ichki yonish – chuqur ruhiy azob) va c) ko‘r bo‘lish (fojiaviy yakun – jismoniy va ma’naviy yo‘qotish). Hissiyotning bu tarzda ortib borishi qahramon fojeasining naqadar ulkanligini tinglovchi qalbiga yetkazadi.

Yoki sog‘inch va intizorlikning darajalanishi ham emotsionallikka asoslanadi. Mahbubaning kelishini kutish yoki unga intilish hissi vaqt va ruhiy holatning hissiy yuklamasi orqali gradatsiya qilinadi. Masalan, G‘aribning sog‘inchi lisoniy va kognitiv bosqichlar orqali beriladi: “Bir kun ko‘rmasam *beqarorman*, ikki kun ko‘rmasam *behorman*, uch kun ko‘rmasam *dilzorman*”. (Oshiqnoma, 4-kitob, 53-b.)

Vaqt o‘tishi bilan qahramon holati *beqarorlikdan* (tinchsizlik), *behorlikka* (madorning qurishi) va nihoyat *dilzorlikka* (qalbning qon bo‘lishi) o‘tadi. Bu o‘rinda emotsional kulminatsiya vaqt bilan mantiqiy bog‘langan holda o‘sib boradi.

“Oshiqnoma” turkum dostonlarida g‘azab va shiddatning emotsional gradatsiyasi ham ko‘p kuzatiladi. Qahramonlar o‘rtasidagi konfliktlarda, ayniqsa, raqibga tahdid qilish yoki dushman bilan yuzlashish sahnalarida so‘zlar shiddatliroq ma’no kasb eta boshlaydi. Masalan, “Avazning keltirilishi” dostonida Avazning raqibiga nisbatan tahdidi emotsional jihatdan o‘sib boradi: “*Voy-voylaturman* bolam sani... *Gazdirurman* bolam sani... *Topshirurman* bolam sani”. (Oshiqnoma, 4-kitob, 290-b.) Bu yerda “voy-voylatish”dan boshlangan g‘azab “topshirish” (yakuniy g‘alaba yoki halokat) nuqtasiga qarab ko‘tariladi. Har bir bosqichda dushmanga bo‘lgan nafrat va o‘ziga bo‘lgan ishonch emotsional jihatdan o‘sib boradi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib aytish mumkinki, “Oshiqnoma” dostonlarida emotsional gradatsiya quyidagi lingvopoetik vazifalarni bajaradi: a) qahramonning ichki dunyosidagi o‘zgarishlarni dinamik holatda tasvirlash; b) voqealar rivojini eng yuqori hayajon nuqtasiga olib chiqib, tugunni yechishga zamin tayyorlash; c) baxshi ijrosidagi aforizmlarning tinglovchi ruhiyatiga maksimal darajada ta’sir qilishini ta’minlash.

Xulosa. “Oshiqnoma” turkumidagi dostonlar matnlarining lingvopoetik tahlili shuni ko‘rsatadiki, *gradatsiya* hodisasi ushbu asarlarning badiiy ustunini shakllantiruvchi asosiy uslubiy vositalardan biridir. Gradatsiyaning badiiy vazifalarini quyidagicha umumlashtirish mumkin: a) emotsional keskinlikni oshirish;

b) simmetriyani ta’minlash; c) personajlar o‘rtasidagi farqni ko‘rsatish. Ushbu gradatsion o‘rinlar “Oshiqnoma” dostonlarining nafaqat lisoniy boyligini, balki undagi mantiqiy va estetik qurilishning mukammalligini ham ilmiy jihatdan asoslaydi. Umuman, “Oshiqnoma” dostonlaridagi gradatsion vositalarni o‘rganish o‘zbek tili uslubshunosligi va lingvopoetikasini yangi materiallar bilan boyitadi, shuningdek, milliy badiiy tafakkurimizning lisoniy hamda mantiqiy tamoyillarini chuqur anglashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Galperin I. R. Stylistics. – Moscow: Higher School, 1981.
2. Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – Москва: Изд-во АН СССР, 1963.
3. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006.
4. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007.
5. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008.
6. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – №5. – Тошкент, 2012.
7. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
8. Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Тошкент, 2010.
9. Хоразм достонлари. Ошиқнома. 3-китоб (2008), 4-китоб (2009), 5-китоб (2011) \\ Масъул муҳаррир С.Р.Сапарбоев. – Урганч: “Хоразм” нашриёти.